



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-MART OYLARI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2024-yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **1 122,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati **105,5 %** ni tashkil etdi.

9,7 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

109,0
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-mart
oylariga nisbatan

201,8 %

69,0 %

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

774,5
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-mart
oylariga nisbatan

98,4 %

21,3 %

Norasmiy sektor

239,0
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-mart
oylariga nisbatan


107,2 %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 109,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 201,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,6 % punktga ko‘payib, 9,7 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024-yil yanvar-mart oylarida

qurilish ishlari hajmi, mlrd. soʻm



Maʼlumot uchun:


Respublika boʻyicha eng yuqori qurilish hajmini koʻrsatgan Nukus shahri 342,7 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati 108,0 %, Toʻrtkoʻl tumani 119,8 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati 90,1 %, Moʻynoq tumani 87,8 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati 174,2 %, Beruniy tumani 72,2 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati 100,5 %, Ellikqalʼa tumani 73,8 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati 103,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2024-yil yanvar-mart oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 122,5	109,0	774,5	239,0
Nukus sh. tumanlar:	342,7	12,9	315,3	14,5
Amudaryo	69,1	3,0	35,7	30,4
Beruniy	72,2	1,1	57,5	13,6
Bo'zotov	19,5	0,5	15,3	3,7
Qorao'zak	19,6	1,7	13,3	4,6
Kegeyli	22,9	5,6	12,3	5,0
Qo'ng'iro't	45,3	10,9	29,0	5,4
Qonliko'l	23,5	0,6	7,0	15,9
Mo'ynoq	87,8	43,5	38,3	6,0
Nukus	59,7	1,6	37,4	20,7
Taxiatosh	50,6	1,4	39,7	9,5
Taxtako'pir	21,0	0,6	15,3	5,1
To'rtko'l	119,8	13,6	72,0	34,2
Xo'jayli	36,3	-	21,1	15,2
Chimboy	45,5	1,9	10,4	33,2
Shumanay	13,2	1,0	3,1	9,1
Ellikqal'a	73,8	9,2	51,8	12,8

2024-yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 109,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 201,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,6 % punktga ko'paydi va 9,7 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 49,5 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 323,3 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 24,4 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 724,7 %), Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 24,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68,8 %) va Ellikqal'a (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 12,4 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 854,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,0 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,2 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 98,4 % ni tashkil etgan holda 774,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



69,0

2024-yil
yanvar-mart

74,2


2023-yil
yanvar-mart



Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (315,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 92,0 %), To'rtko'l tumani (72,0 mlrd. so'm yoki 60,0 %) Beruniy tumani (57,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 79,7 %), ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,3 % ni tashkil etdi yoki 239,0 mlrd.so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 30,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 092,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 2,7 % va 97,3 % ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-mart oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **70,9 %** i yoki **796,1** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 71,0 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.

8,9 %

71,0
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 491,0 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 61,7 % ni tashkil etdi.

61,7 %

491,0
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 234,1 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 29,4 % ni tashkil etdi.

29,4 %


234,1
mlrd. soʻm

Yillar boʻyicha yangi qurilish hajmi va ulushi



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 784,5 mlrd. so'm, ulushi 69,9 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 281,4 mlrd. so'm, ulushi 25,1 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 56,6 mlrd. so'm va ulushi ulushi 5,0 %ni tashkil etdi



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 63,3% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 % punktga kamaydi va 30,4 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 80,8 % ni tashkil etdi.

ulushi % da

38,6

7,9

92,1

Yirik qurilish
tashkilotlari

2023-yil
yanvar-mart

19,2

80,8

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

2024-yil
yanvar-mart

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi va 10,1 % ni tashkil etdi. Qolgan, 89,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.

